



**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBGA IJODIY
MUNOSABATINI TARBIYALASHDA JADIDCHILIK NAMOYONDALARI
ASARLARIDAN FOYDALANISH**

Nishonova Shohista Boymatovna

*Iqtisodiyot va Pedagogik universiteti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs
magistranti, Qarshi shahar 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining oliy toifali
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalashda jadidchilik namoyondalari asarlaridan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. O‘z davrida yangicha fikrlashni ilgari surgan, millat ertasi uchun qayg‘urgan jonkuyarlar ko‘plab yangicha maktablar tashkil etib, darsliklar yaratishgan. Bo‘lg‘usi pedagoglar bu insonlardan fidoyilikni, yangilik yaratishga bo‘lgan intilishni o‘rganadilar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, yangilik, pedagogika, ma‘naviy meros, fidoyilik, ta‘lim, tarbiya, innovatsiya, texnologiya, mas‘uliyat.

Аннотация: В этой статье рассказывается о значении использования произведений деятелей джадидизма в воспитании творческого отношения будущих учителей к профессии. В свое время эти самоотверженные люди, продвигавшие новое мышление и переживавшие за будущее нации, создали множество новых школ и учебников. Можно без преувеличения сказать, что будущие педагоги учатся у них преданности своему делу и стремлению к новшествам.

Ключевые слова: джадидизм, новизна, педагогика, духовное наследие, преданность, образование, воспитание, инновации, технологии, ответственность.

Annotation: This article discusses the importance of using the works of Jadidism figures in fostering a creative approach to the profession among future teachers. These devoted individuals, who once promoted new ways of thinking and



cared about the nation's future, established numerous modern schools and created textbooks. It is no exaggeration to say that future educators learn dedication and a drive for innovation from them.

Keywords: *Jadidism, innovation, pedagogy, spiritual heritage, dedication, education, upbringing, technology, responsibility.*

KIRISH

Bugungi kun o'qituvchisidan nafaqat zamonaviy bilimlar, balki tarixda yashab o'tgan ajdodlarimiz hayoti va ijodini ham keng o'rganish talab etiladi. Chunki har bir xalq o'z milliyligini saqlab qolgan holda farzandlariga ta'lim-tarbiya berishga harakat qiladi. Kelgusida pedagoglik sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlar ekanmiz, ularni o'z kasbiga ijodiy munosabatini tarbiyalash ustuvor vazifa sanaladi. Bu borada yaqin o'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimiz-jadidchilik namoyondalari faoliyatini o'rganish talaba-yoshlar uchun nihoyatda muhimdir. Aslida "jadid" so'zi arabcha "yangi" degan ma'noni anglatadi. Haqiqatdan, o'z nomiga munosib ravishda ta'lim sohasida jadidlar tom ma'noda yangilik olib kirdi, desak adashmagan bo'lamiz. Millatini ma'rifatparvar, ziyoli, o'qimishli, davr talabi hamda zaylini anglagan el sifatida ko'rishni istagan bu kishilar jonkuyar muallim, adabiyotshunos, shoir, adib yoki davlat arbobi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdilar. Ular hamisha yangilikka intiladigan, yangi innovatsion g'oyalarni o'ylab topib, amalga oshiradigan hur fikrli yosh avlodni yetishtirishga astoydil kirishgandilar. Shu istakda jadidlar tomonidan ko'plab maktablar qurildi, yangi dorilfununlar o'z faoliyatini boshladi, yangicha ruhdagi adabiyotlar, darsliklar chiqarildi. Gazetalar nashr etilib, xalq savodxonligini hamda kitobxonlik saviyasi, didini oshirishga e'tibor qaratildi. Taassufki, ko'pchilik ezgu niyatli ma'rifatparvar bobolarimizning qismati Chor Rossiyasi hukumati tomonidan o'tkazilgan siyosat va tazyiqlar tufayli ayanchli yakun topdi. Agar ular o'z faoliyatini davom ettirganlarida, balki xalqimiz orasidan bundanda ko'proq ziyoli yoshlar yetishib chiqardi. Nima bo'lganda ham, ularning hayot va ijod yo'li, e'tiqodi, Vatanga sadoqati, muhabbati bo'lajak o'qituvchilarni kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etishiga ishonamiz.



"Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir",- degan edi Abdulla Avloniy. O'z davrining mohir pedagogi hisoblangan Abdulla Avloniy ko'plab darsliklarni yozgan bo'lib, ularda masallar janriga ham qo'l urgan. Ana shu masalalardan biri "Bolari va pashsha" hozirgi "Novda" nashriyoti tomonidan nashr etilgan 3-sinf o'qish savodxonligi darsligiga ham kiritilgan. Masalda mehnatsevarlik, o'ziga va jamiyatga foydali ish bilan shug'ullanish fazilatlari ulug'lanib, Bolari timsolida mujassamlashtirilgan. Pashsha obrazi orqali esa yalqovlik, ishyoqmaslik, umrni behuda o'tkazish illatlari qoralangan. Abdulla Avloniyning shu kabi asarlarida halollik ulug'langan bo'lib, bu fazilatni shakllantirish bo'lg'usi pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir. Bu kichik asar janrida ham ulkan maqsadlar ko'zlangan bo'lib, yosh avlodni, jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega.

Mahmudxo'ja Behbudiy - jadidchilik namoyondalaridan biri hisoblanadi. U o'zbek teatri uchun birinchi bo'lib, asarlar yozgan. Uning " Padarkush" tragediyasi nafaqat o'sha davr, balki bugungi kun uchun ham dolzarb sanaladi. Asarning muhim g'oyasi farzandlarga to'g'ri tarbiya berish, ularning kasb egallashi xususida qayg'urish nihoyatda zarur va shart ekanligiga urg'u berilgan. Otasi hisobidan kun ko'rib, kayf-u safoga berilgan bolalarning taqdiri ayanchli yakun topishi hayot tomonidan isbotlangan aksioma ekanligi yana bir bor turli obrazlar orqali tasvirlangan. Umri mobaynida xalq manfaatini o'ylab, ish tutdi. Ma'rifatparvar kishi sifatida xalq ta'limi uchun qayg'urdi.

Abdurauf Fitrat jadidchilik namoyondalaridan biri bo'lib, bu borada ko'plab asarlar, darsliklar yaratdi. Oddiy xalqning savodxonligini oshirish uchun tinmay targ'ibot olib bordi. Yangi maktablar tashkil etilishi, o'quv qo'llanmalari yaratilishida jonbozlik ko'rsatdi. U o'zbek tili grammatikasi ustida qizg'in ishlar olib borib, bu yo'nalishda kitob yozdi. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashdi. Zamonasining zukko kishisi bo'lgan Abdurauf Fitratning vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan asarlari zamonlar o'tsa-da, bugungi kun yoshlari, bo'lajak o'qituvchilari uchun bir namuna bo'lib xizmat qiladi.



Is'hoqxon Ibrat o'sha davrning ilg'or kishilaridan biri bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ibrat bir vaqtning o'zida bir nechta tillarni yaxshi o'zlashtirgan, bemaol muloqot qila olgan. U 25 yoshida haj safariga yo'l oladi hamda ko'plab mamlakatlarga sayohat qiladi, ayrimlarida ma'lum muddat istiqomat qiladi. Uning "Lug'ati sitta al-lug'a" nomli asari olti tilda: arab, fors, turk, ingliz, rus hamda o'zbek tillarida yozilganligi e'tiborga molikdir. Hatto bugungi kunda ham til o'rganish qanchalik muhim ekanligini hisobga olsak, Is'hoqxon Ibrat naqadar zakovatli olim bo'lganligini anglash mumkin. U o'z safari davomida nafaqat til o'rganadi, balki boshqa xalqlar madaniyatini ham nazar soladi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga ijodiy munosabatini tarbiyalashda o'zga ellarning o'rnak bo'larlik urf-odatlarini o'rganish, samarali ta'lim berish usullarini egallash orqali o'z milliy ta'lim-tarbiya uslubimizni yaratish, amalda qo'llash dolzarb masala sanaladi.

Jadidchilik namoyondalarini eslaganda Abdulhamid Cho'lponni yodga olmaslik mumkin emas. Cho'lpon hassos shoir sifatida go'zal she'rlar bitgan, zamonasining eng chirkin tomonlarini aks ettirgan asarlar yozgan. "Qor qo'ynida lola", "Kecha va kunduz" asarlari shular jumlasidandir. Adib o'z ijodi orqali jaholatni faqat ma'rifat urug'lari bilan yo'q qilish mumkinligini, busiz yurt yorug'lik ko'rmasligini, mamlakatdagi har bir inson, xoh erkak bo'lsin, xoh ayol kishi bo'lsin ilm olishga intilishi lozimligini uqtiradi. Abdulhamid Cho'lpon "Xalq" she'rida shunday deydi:

"Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir.

Xalq qo'zg'alsa kuch yo'qdirkim, to'xtatsin,

Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin.....

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,

Quchoq ochib, xalq ichiga boraylik!

Cho'lpon qisqa satrlarda olam ma'noni jam etib, xalqni birdamlikka, ahillikka chorlagan. Qachonki bir yoqadan bosh chiqarib, birlashgandagina xalq qudratli kuchga ega bo'lishi ta'kidlangan. Tarixga nazar salsak, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda aynan butun el bir tan-u jon bo'lib, ta'limga e'tibor qaratgani,



farzandlariga to'g'ri tarbiya berganligi sababli buyuk davlatga aylanganiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, Yaponiyani olaylik. Atom bombasi ikki shaharga tashlanib, qancha joylar vayron bo'lganda, mamlakat aholisi o'zidagi barcha qimmatbaho buyumlarni davlat rivojlanishi uchun topshirgan ekan. Ana shunday misollardan ham ko'rib turibsizki, bizning naqadar uzoqni ko'radigan, zukko bobolarimiz yashab o'tgan ekan.

XULOSA

Mamlakat taraqqiyoti yo'lida o'qituvchining o'rni beqiyos hisoblanadi. Chunki aynan pedagoglar ertangi kun kishilarini ma'nan va aqlan jamiyatga kirishishida katta hissa qo'shadi. Bugungi kunning aqlli, intizomli, yangilikka intiluvchan muallimlarini o'z kasbiga ijodiy munosabatini tarbiyalashda jadidchilik namoyondalarining hayot va ijod yo'lini ibrat qilib ko'rsatish, ulardan namuna olish nihoyatda muhimdir. Mustaqillikning ilk davrlaridanoq garchi nomlari o'tmishda qoralanib, xalq dushmanlari deya e'lon qilingan bo'lsa-da, ularning pok nomi oqlandi. Ular o'zbekning mard o'g'lonlari, jonkuyar ma'rifatparvarlaridir. O'z xalqini hur va ozod, keng fikrli, dunyoqarashi davr talabiga mos tarzda ko'rishni istagan insonlar hamisha barhayotdirlar. Ularning yashab o'tgan shonli yo'li yosh avlodni tarbiyalashga bel bog'lagan barcha bo'lajak o'qituvchilar uchun namuna, qilgan ishlari dasturi amaldir. Umid qilamizki, yaqin kelajakda ham buyuk siymolar qoni vujudida jo'sh urgan fidoyi o'qituvchi-mutaxassislar yurtimizda yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Sh. Mirziyoyev. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent- 2017.
2. Abdullayeva M., Abduqodirov A.- Kasbiy pedagogika, Toshkent, 2010.
3. Xodjayev A. – Kasbiy ta'lim pedagogikasi, Toshkent, 2015.
4. Sharipov Sh. – Pedagogika va kasb-hunar ta'limi metodikasi, Toshkent, 2012.
5. To'xtasinov B., Usmonov A. – Kasbiy ta'lim metodikasi va pedagogik texnologiyalar, Toshkent, 2018.



6. Qodirova G. – Kasbiy pedagogika asoslari, Toshkent, 2016
7. Mirzaahmedov H. – Kasbiy ta'lim va pedagogik texnologiyalar, Toshkent, 2021.
8. Ziyonet.uz manbalari.
9. Murodjon Ahmedov. - Jadidchilik: kechagi va bugungi. Toshkent -2017